



## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASH JARAYONLARI, UNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Teshabaeva Odina Nasridinovna

O'qituvchi,

<sup>2</sup>Karimova Mexriniso Izzatilloevna

Magistr,

Farg'ona davlat universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7981905>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 28<sup>th</sup> May 2023

Online: 29<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Investitsiya, jozibadorlik,  
xalqaro globallashuv,  
mexanizm, moliyalashtirish.

### ABSTRACT

*Mamlakatimiz iqtisodiyotiga olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri bo'lib, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda mamlakat mintaqalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish davlat siyosati hisoblanadi. Ushbu investitsiya siyosatini shakllantirishda maqsadlar hamda ustuvor yo'nalishlarni belgilash, strategiya va dasturlarni ishlab chiqish shu bilan bir qatorda qulay investitsiya muhitini yaratish chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Shu o'rinda aytib o'tish jozibador xorijiy investitsiyalar xalqaro globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonining asosiy vositasi bo'lgani sababli erkin bozor iqtisodiyotining global raqobatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi.*

Mustaqillikdan keyingi davrda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida, bozor mexanizmi va tamoyillariga mos mulkchilik va xo'jalik yuritishning turli shakllari paydo bo'ldi, davlat mulki ulushining salmog'i kamayib, YaIM qiymatida nodavlat sektori hissasining oshish tendensiyasi ta'minlandi. Natijada YaIM qiymati, shuningdek, davlat byudjetining daromad qismida ham moliyaviy tushum manbalari tarkibi o'zgarib, kapital mablag'larning markazlashgan taqsimotidan investitsiyalashning markazlashmagan manba va bozor sub'ektlarini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Investitsiya faoliyatini markazlashmagan manbalar hisobidan moliyalashtirish bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z va unga tenglashtirilgan mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tushuniladi. Bunday sharoitda faol investitsiya siyosatini yuritish uchun davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurati tug'iladi. Xo'sh, moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonlari qanday amalga oshiriladi? Albatta, moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari (soliq, sug'urta, subsidiya, subvensiya, amortizatsiya ajratmalari, kredit va boshqalar) orqali amalga oshiriladi. Bu moliyaviy vositalar xo'jalik sub'ektlarining o'z faoliyat yo'nalishlarini mustaqil va erkin belgilash muammolarini bozor munosabatlariga mos hal etishga ko'mak beradi. Provardida, qulay investitsiya muhitini yaratishga erishiladi, bu orqali iqtisodiyotni transformatsiya qilish uchun innovatsiya va investitsiya faoliyati turlarini kengaytirish va ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga erishiladi.



Tarmoqlar va xo'jalik yuritish sub'ektlarida hozirgi kunda olib borilayotgan investitsiya va innovatsiya faoliyati iqtisodiyotni transformatsiya qilish talablariga to'liq javob bera olmaydi. Chunki qator muammolar borki, ularning echimi bu masalalarga bog'liq. Misol uchun, mamlakatda investitsiyalar oqimi etarli emas; to'g'ridan-to'g'ri jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi past va manbalari xilma-xil emas; hududiy investitsiya siyosatida barqarorlik etishmaydi, investitsiyalar hududlar kesimida notekis joylashgan; ishlab chiqarishni transformatsiya qilish, zamonaviylashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun investitsiyalarni jalb qilish darajasi etarli emas; investitsiya resurslari tarkibi rivojlangan mamlakatlarda mavjud tuzilishga mos kelmaydi; iqtisodiyotda davlat ulushining yuqori darajada qolishi; inflyasiyaning o'sishi; soliq yuki o'zgarishi; infratuzilma va kommunikatsiyalarning rivojlanish darajasi etarli emas; asosiy vositalarni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari, ayniqsa ishlab chiqarish tarmoqlarida faollik darajasi pastligi; muhandislik va ilmiy tadqiqot ishlanmalari hamda texnologiyalari etishmasligi; ishlab chiqarish past darajadali; mahalliyashtirishning past darajasi va import qilinadigan tarkibiy qismlarga kuchli bog'liqlik masalalari saqlanib qolmoqda. Alohida qayd etish lozimki, avvalgi xomashyo realizatsiya qilish siyosatidan jahon bozoriga tayyor iste'mol mahsulotlari chiqarish, shu asosda mamlakatimizga xorijiy valyuta va investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirish dolzarb hisoblanadi.

Binobarin, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va investitsiyalash jarayonlarini bir medalning ikki tomoni sifatida qarash va ularning o'zaro ta'sirini kuchaytirish hamda uyg'unligini ta'minlash asosida hududlar, tarmoqlar va xo'jalik yuritish sub'ektlari kesimida investitsiya faolligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga samarali tatbiq etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz.

Avvalo, O'zbekiston hududida investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni bilan tartibga solinadi, me'yoriy-huquqiy bazasi hisoblanadi. Bu qonun bilan O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi 609-I sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi 611-I sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 719-I sonli qonuni va boshqa bir qancha me'yoriy hujjatlar bekor qilindi. Yangi qonunning 3-moddasida investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va tartiblari haqida va investitsiya siyosatiga qo'yidagicha ta'rif berilgan. "Investitsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati sub'ektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui"dir belgilab qo'yilgan.

Investitsiya faoliyatining davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda asosan moliya resurslarini davlat maqsadli dasturlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa davlat ehtiyojlariga yo'llash orqali amalga oshiriladi. Umuman, davlat investitsiyalari samarasi kamroq deb hisoblanadi, chunki ular aksariyat hollarda noishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga yo'llanadi. Bundan tashqari,



hozirgi sharoitda byudjet mablag'lari cheklanganligi sababli ularni katta miqdorda amalga oshirishning imkoni yo'q. Davlatning byudjet resurslari birinchi navbatda mamlakat va hududlarni rivojlantirishning maqsadli investitsiya dasturlarini bajarishga yo'naltiriladi.

Markazlashtirilgan investitsiyalar faqat respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlari va davlatlararo bitimlarni amalga oshirish, infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'ektlari qurilishiga, umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va ta'biy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga ajratiladi. Davlat byudjeti mablag'larisiz ijtimoiy soha tarmoqlari samarali rivojlana olmaydi. Davlat davlat byudjetidagi markazlashtirilgan moliya resurslarining 80 % ga qadar mablag'larini ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, turar-joy va davlat qurilishi sohalarining kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarini qondirishga yo'llaydi. Markazlashtirilgan moliya mablag'larining qolgan 20 % qismidan mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ishlab chiqarish jabhalarida rag'batlantirish maqsadida foydalaniladi. Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbalari, ularning tarkibi va ularni bozor munosabatlari sharoitida transformatsiya qilishni talab etadi. Chunki moliyaviy manbalarning tarkibi ekstensiv ko'paymaydi balki ulardan intensiv va samarali foydalanish yo'llarini qidirish lozim. Buning uchun ularning tarkibiy tuzilishini chuqur tahlil qilish va bozor infratuzilmalaridan oqilona foydalangan holda daromad olish ob'ektlariga yo'naltirish lozim. Ikkinchi tomondan, moliyaviy manbalardan hozirgi koronavirus pandemiyasi sharoitida nafaqat daromad olish manbai sifatida qarash, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanish maqsadida noaktiv faoliyatlarga mablag' sarflashdan saqlanish ham ijtimoiy himoyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bunday tamoyilda ish tutish albatta markazlashgan pul mablag'lari fondlarida o'zgacha, markazlashmagan pul mablag'lari fondlarida boshqacha bo'ladi. Shu nuqtai nazardan moliyaviy manbalar tarkiblari tasnifiy belgilariga ko'ra tahlil qilinadi. Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy manbalarning tasnifiy belgilariga ko'ra tarkibiy elementlari qo'yidagicha farqlanadi. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan moliyaviy manbalar tarkibini (elementlarini) tasnifiy belgilariga ko'ra ko'rib chiqamiz. Asosiy kapitalga o'zlashtiriladigan investiyalar markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tahlili qo'yidagi 2- jadvalda o'z aksini topgan. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida 138,1 trln.so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 63,7 %i yoki 88,0 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 36,3 % yoki 50,1 trln. so'm moliyalashtirildi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, o'tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 6,7 % punktga kamayib, 21,8 % yoki 30 178,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 107927,9 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 78,2 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,7 % punktga ko'paydi. 2020 yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 37 916,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,5 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,8 % i yoki 12 157,2 mlrd. so'mi o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 086,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos



davriga nisbatan 5,0 % punktga kamayib, 10,9 % ni tashkil etdi. Mamlakat investitsiya siyosatini yuritishda Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar masalalariga ham e'tibor qaratiladi (2.2.1-jadval).

## 2.2.1-jadval.

### Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar<sup>1</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati %da	Umumiy hajmga nisbatan, %da	
				2019 y.	2020 y.
	<b>Jami</b>	<b>138106,6</b>	<b>91,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>1.</b>	<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>30178,7</b>	<b>70,3</b>	<b>28,5</b>	<b>21,8</b>
1.1.	Respublika byudjeti	8987,5	69,9	8,5	6,5
1.2.	Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1365,5	99,7	0,9	1,0
1.3.	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi	x	x	x	x
1.4.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	1365,7	20,7	4,4	1,0
	Shu jumladan, mln. AQSH dollarida	137,4	20,2	x	x
1.5.	O'zbekiston Respublikasi kafolatidagi xorijiy kreditlar	18460,0	83,4	14,7	13,3
	Shu jumladan, mln. AQSH dollarida	1857,0	81,6	x	x
<b>2.</b>	<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>107927,9</b>	<b>99,6</b>	<b>71,5</b>	<b>78,2</b>
2.1.	Korxonalar mablag'lari	37916,3	116,3	21,6	27,5
2.2.	aholi mablag'lari	12157,2	79,8	9,8	8,8
2.3.	To'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	38132,7	103,3	24,4	27,6
	Shu jumladan, mln. AQSH dollarida	3835,9	101,0	x	x
	<i>shundan:</i>				
2.4.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	15086,1	63,0	15,9	10,9
	Shu jumladan, mln. AQSH dollarida	1517,6	61,5	x	x
2.5.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	19721,7	83,4	15,7	14,3

Ishlab chiqarishning tarkib topgan tarmoqlarini qayta qurish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalari bilan qurollantirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etishning bir yo'nalishi bo'lsa, ikkinchi yo'nalishi yangi ishlab chiqarishlardagi bevosita xorijiy

<sup>1</sup> www.stat.uz



investitsiyalar, ya'ni avtomobilsozlik, elektron, elektrotexnika sanoati tarkib topmoqda. Qurilish industriyasi, aloqa tarmoqlari tizimi va qishloq ho'jaligida eng yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda (2.2.3-jadval).

### 2.2.3-jadval.

#### Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar<sup>2</sup>

№	Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'm	umumiy hajmga nisbatan, %da	
			2019 y.	2020 y.
	<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar –jami</b>	<b>138106,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha:			
1.	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11971,8	8,4	8,7
2.	tog'-kon sanoati	14186,7	8,1	10,3
3.	ishlab chiqarish sanoati	44586,8	27,1	32,3
4.	elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	7881,2	11,7	5,7
5.	suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	2315,6	2,3	1,7
6.	qurilish	5608,0	5,6	4,1
7.	ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	6269,1	3,3	4,5
8.	tashish va saqlash	7437,4	5,5	5,4
9.	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1655,8	1,5	1,2
10.	axborot va aloqa	3494,5	1,6	2,5
11.	moliya va sug'urta faoliyati	1398,6	0,8	1,0
12.	kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	2366,0	1,4	1,7
13.	ta'lim	3649,0	2,9	2,6
14.	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4080,0	2,2	3,0
15.	san'at, ko'ngil ochish va dam olish	2225,0	1,1	1,6
16.	turar-joy qurilishiga investitsiyalar	13124,1	11,6	9,5
17.	boshqa faoliyat turlari	5857,0	4,9	4,2

2.2.3-jadval ma'lumotlari tahlil qilinsa, asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati etakchilik qilmoqda. Mazkur iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 44586,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 32,3 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turi quyidagilardan iborat:

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 11186,9 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 8,1 %) - boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 9 634,1 mlrd. so'm (7,0 %); - metallurgiya sanoati – 8187,2 mlrd. so'm (5,9 %). Tog'-kon

<sup>2</sup> www.stat.uz



sanoatida jami 14186,7 mlrd.so‘m yoki respublika bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 10,3 % i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 7,7 % i yoki 10610,9 mlrd. so‘mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir. Bugungi kunda koronavirus pandemiyasi sabab davlatlar iqtisodiy siyosatida nomuvofiqlik yuzaga keldi. 2020 yilning yanvar-sentyabr oylarida investitsion faollikni pasaygani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 91.3 % ni tashkil etdi. Koronavirus pandemiyasi sababli dunyoning etakchi davlatlari inqirozga qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqib, mazkur dasturlarda ko‘zda tutilgan choratadbirlarni moliyalashtirish manbalarini shakllantirdi. Xususan, koronavirus infeksiyasi tarqalishi eng ko‘p kuzatilgan AQSHda inqirozga qarshi kurashish dasturiga 2,3 trln. (YaIMning 11 %i), Germaniya 189,3 mlrd.(YaIMning 4,9 %i), Xitoy 168,7 mlrd.(YaIMning 1,2 %i), Kanada 145,4 mlrd.(YaIMning 8,4 %i), Avstraliya 133,5 mlrd.(YaIMning 9,7 %i), koronavirus infeksiyasi nisbatan kam tarqalgan Yaponiya 5,2 mlrd., Argentina 4,45 mlrd. va Indoneziya 2,2 mlrd. AQSH dollariga teng mablag‘larni ajratdi. Vaqt o‘tishi bilan G 20 guruhiga kiruvchi davlatlarning inqirozga qarshi kurashish dasturlari qanday natija berganligiga baho beramiz. Darhaqiqat, O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham pandemiya o‘z oqibatlarini ko‘rsatmay qolmadi. Eng yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste‘mol hajmlari keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xomashyo tovarlari narxi pasayishi va kon’yunkturaning yomonlashuvi global iqtisodiyot tizimining bir qismi bo‘lgan O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham ta‘sir qilishini hisobga olib, salbiy ta‘sirini yumshatish bo‘yicha samarali oldini oluvchi choralar ko‘rish maqsadida Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi (10 trln so‘m.) tashkil etildi. Pandemiya sharoitida yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarda ishlab chiqarish va iste‘mol hajmlari keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalari izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xomashyo tovarlari narxi pasayishi evaziga iqtisodiyotni qayta tiklash uchun yirik hajmdagi mablag‘lar sarflanishi mamlakatda inflyasiya sur‘ati oshishi va ishsizlar soni oshishiga olib kelmoqda. Bu holat YaIMga o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, har oy mamlakat YaIMning 2 foizgacha pasayishiga olib kelishi mumkin.

## References:

1. Iminova D., Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiyotimizdagi ahamiyati||,—Iqtisodiyot va ta‘lim|| 2014y, №5
2. Olingan ma‘lumotlar asosida magistrant tomonidan ishlab chiqildi.
3. G.Narzullayeva —Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mavjud iqtisodiy muammolari||, —Iqtisodiyot va ta‘lim|| jurnali, 2/2015, 52-56 bet
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, 15.05.2015 yil PF-4725-son.
5. Салимжонов, З. С. Қ., & Турғунов, Э. Қ. Ў. (2022). Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектларининг аҳоли турмуш фаровонлигини яхшилаш, мамлакат ва ҳудудлар экспорт салоҳиятини оширишдаги ўрни. Academic research in educational sciences, 4(1), 142-151.



6. қизи Қодирова, Г. И., & Жамолиддинова, М. Д. (2022). Ўзбекистон худудларидаги кичик бизнес субъектларини тижорат банклари томонидан кредитлаш сиёсатини такомиллаштириш. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(7), 49-57.
7. Тешабаева, О. Н. (2019). Развитие семейного предпринимательства как фактор повышения занятости населения. In *Наука и образование в обеспечении устойчивого развития региона в условиях перехода к цифровой экономике* (pp. 190-193).
8. Тешабаева, О. Н., Суфиев, Р., & ўғли Хасанов, Ж. А. (2022). Мамлакатимиз худудларида инвестицион жозибадорликни ривожлантириш бўйича стратегик дастурлар. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 2(17), 245-251.
9. Тешабаева, О. Н., & Суфиев, Р. (2022). Оценка путей и эффективности привлечения инвестиций в реальный сектор экономики. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(17), 196-200.
10. Тешабаева, О. Н., Салимжанова, З. С. К., & Пўлатова, О. М. (2021). Сфера развития предпринимательской инвестиционной деятельности экономики узбекистана. *Scientific progress*, 2(7), 670-673.
11. Teshabaeva, O. N., & Muydinov, M. Y. O. G. L. (2022). O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlashda investitsiyalarning roli. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 526-537.
12. Тешабаева, О. Н., & Ахунова, О. Э. (2020). Привлечение инвестиций в развитие экономики агропромышленного комплекса республики Узбекистан. In *Развитие регионального АПК и сельских территорий: современные проблемы и перспективы* (pp. 241-243).
13. Тешабаева, О. Н. (2021). Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida mashinasozlik korxonalarini investitsion jozibadorligini oshirish. *Uzacademia ilmiy jurnali*, 75-79.
14. Тешабаева, О. Н., Мухаммадов, И. Б. О., & Джамолиддинов, Д. Р. (2020). O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi kompleksi iqtisodiyotni rivojlanishida investitsiyalarning o'rni. In *минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 600-603).
15. Тешабаева, О. Н. (2020). Механизмы организации предпринимательской-инвестиционной деятельности экономики Узбекистана. In *минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 537-540).
16. Тешабаева, О. Н., & Ташматова, Н. Х. (2023). Ўзбекистон республикасида аграр секторда тадбиркорлик ривожланишининг ўзига ҳос жиҳатлари. *Academic research in educational sciences*, 4(1), 22-30.
17. Тешабаева, О. Н. (2019). Эффективное управление инвестиционной деятельностью в условиях модернизации национальной экономики Узбекистана в сфере телекоммуникации. *Известия ВУЗов Кыргызстана*, (11), 74-76.
18. Тешабаева, О. Н. (2017). Корхоналарнинг инвестицион лойиҳалар ва инновацион ғоялардан фойдаланиш тизимини такомиллаштириш йўналишлари. In *Education In The Process Of Globalization: Problem and Tasks*" International scientific conference (pp. 41-44).



19. Teshabaeva, O. N., & Kodirova, R. A. (2023). Analysis of Methods for Further Development of the Labor Market to Ensure Employment in the Digital Economy. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(4), 74-78.
20. Олимова, Н. Х., Тешабаева, О. Н., & Жўраева, Н. Х. Қ. (2022). Ўзбекистонда инновацион жараёнларни такомиллаштириш орқали корхоналар рақобатдошлигини ошириш масалалари. *Scientific progress*, 3(3), 276-282.
21. Bunakov, O. A., Akhunova, O. E., Teshabaeva, O. N., Eidelman, B. M., Fakhrutdinova, R., & Valeeva, G. F. (2022). Labor Migration and Legal Routs to Avoid Its Negative Consequences on the Example of the Republic Of Uzbekistan. *BiLD Law Journal*, 7(4s), 521-526.
22. Тешабаева, О.Н., & Содиқов, Н. А. Ў. (2022). Ўзбекистонда давлат бюджет маблағларидан молиялаштириш жараёнининг истиқболли йўллари. *Scientific progress*, 3(4), 225-231.
23. Тешабаева, О. Н., Нишонбоев Д. (2021) Ways to use advanced foreign experience to increase the attractiveness of the investment environment in Uzbekistan. (pp.962-972).
24. Teshabaeva, O., & Yulchiev, A. (2022). Innovative marketing strategy aimed at maximizing the development of the tourist industry in Uzbekistan. *asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(05), 1-6.
25. Teshabaeva, O., Abdullaeva, M., & Aminjonova, V. (2022). The role and importance of entrepreneurship and small business in the national economy. *international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11, 183-191.
26. Nasridinova, T. O. (2022). Use of main production facilities and economic activities of foreign textile enterprise. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(01), 45-52.
27. Tolipov, A., & Teshabaeva, O. (2021). Innovative entrepreneurship is a factor in the development of the economy of modern production in Uzbekistan. *Студенческий*, (2-4), 96-99.
28. Teshabayeva, O., & Hamidova, S. The Importance of Labor Productivity in Increasing the Economic Efficiency of Industrial Enterprises. *Journal of Marketing and Emerging Economics*.
29. Teshabaeva, O. N., Saidmakhmudov, S. K., & Khalilov, A. A. *Cognitio rerum. Cognitio rerum Учредители: Издательство " Научная артель"*, (6), 60-64.
30. Тешабаева, О. Н., Абдуллаева З. (2021). Создание благоприятных условий для привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. (pp.57-65).